



UDK: 378: 54: 371.3

MUSTAQIL TA‘LIM UCHUN MOSLASHTIRILGAN KONTEKSTLI TOPSHIRIQLARNI ISHLAB CHIQUISH TAMOYILLARI

Formanova Shoira Bobonazarovna.

*Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Tel: 97-730-81-33

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta‘lim jarayonida foydalanish uchun moslashtirilgan kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillari tahlil qilinadi. Kontekstli topshiriqlarning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni, talabalarning kognitiv va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta‘siri, shuningdek, ularni ishlab chiqishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar yoritiladi. Mustaqil ta‘lim uchun moslashtirilgan topshiriqlar real hayotiy holatlarga asoslangan bo‘lib, talabalarning fanlararo bog‘liqlikni tushunishiga va chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqishda muhim hisoblangan didaktik, psixologik va metodik omillar ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta‘lim, kontekstli topshiriqlar, metodik tamoyillar, kompetensiya, ta‘lim samaradorligi, innovatsion pedagogika, fanlararo bog‘liqlik, didaktik yondashuv, o‘quv motivatsiyasi, kognitiv rivojlanish.

ПРИНЦИПЫ РАЗРАБОТКИ КОНТЕКСТНЫХ ЗАДАНИЙ, АДАПТИРОВАННЫХ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются принципы разработки контекстных заданий, адаптированных для использования в процессе самостоятельного обучения. Рассматривается роль контекстных заданий в повышении эффективности обучения, их влияние на развитие когнитивных и практических компетенций студентов, а также методологические подходы, применяемые при их разработке. Задания, адаптированные для самостоятельного обучения, основаны на реальных жизненных ситуациях и способствуют пониманию междисциплинарных связей учащимися, а также формированию навыков глубокого анализа. В рамках исследования также рассматриваются дидактические, психологические и методические факторы, имеющие важное значение при разработке контекстных заданий.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, контекстные задания, методические принципы, компетенция, эффективность обучения, инновационная педагогика, междисциплинарные связи, дидактический подход, учебная мотивация, когнитивное развитие.

PRINCIPLES OF DEVELOPING CONTEXTUAL TASKS ADAPTED FOR INDEPENDENT LEARNING

Annotation: This article analyzes the principles of developing contextual tasks adapted for use in the process of independent learning. It highlights the role of contextual tasks in enhancing the effectiveness of education, their impact on the development of students' cognitive and practical competencies, as well as the methodological approaches used in their design. The tasks adapted for independent learning are based on real-life situations and serve to help students understand interdisciplinary connections and develop deep analytical skills. Within the scope of the study, didactic, psychological, and methodological factors that are considered essential in the development of contextual tasks are also examined.

Keywords: independent learning, contextual tasks, methodological principles, competence, educational effectiveness, innovative pedagogy, interdisciplinary connection, didactic approach, learning motivation, cognitive development.

Kirish. Hozirgi zamon ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim jarayonida talabalarga tayyor bilim berishga asoslangan yondashuv yetarli natija bermayotgani sababli, ta'limda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish zaruriyati ortib bormoqda. Shu boisdan kontekstli topshiriqlarni mustaqil ta'lim jarayoniga moslashtirish muhim metodik muammo sifatida qaralmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kontekstli topshiriqlar ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu topshiriqlarning mustaqil ta'limga moslashtirilgan shakllarini ishlab chiqish, ularning samaradorligini baholash va metodik asoslarini ishlab chiqish yetarlicha o'rganilmagan. Bu boradagi tadqiqotlar ko'proq an'anaviy sinf sharoitidagi interaktiv usullarga qaratilgan bo'lib, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi – mustaqil ta'lim jarayoni uchun moslashtirilgan kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillarini aniqlash, ularning samaradorligini ilmiy-metodik asosda tahlil qilish hamda ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

mustaqil ta'limning nazariy asoslarini o'rganish va uning zamonaviy talablarga muvofiq shakllanish omillarini tahlil qilish;

kontekstli topshiriqlarning mustaqil ta'lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlash;

mustaqil ta‘limga moslashtirilgan kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillarini asoslash;

ishlab chiqilgan topshiriqlarning samaradorligini amaliy tajribalar asosida tahlil qilish va baholash.

Tadqiqot natijalari kimyo ta‘limida mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham yordam berishi kutilmoqda. Shu boisdan, mazkur maqolada kontekstli topshiriqlarning mustaqil ta‘lim uchun moslashtirilgan shakllarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari keng yoritiladi.

Kontekstli topshiriqlarning mohiyati, ularning ta‘lim jarayoniga integratsiyalashuvi va talabalarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etishdagi roli haqidagi dastlabki ilmiy yondashuvlar Vygotsky, Piaget kabi tadqiqotchilarning konstruktivistik ta‘lim nazariyalari bilan bog‘liq. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, ta‘lim jarayoni talabalarning ilgari egallagan bilimlarini yangi sharoitlarda qo‘llash va mustaqil izlanish olib borish orqali rivojlanadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So‘nggi yillarda kontekstli ta‘lim metodlari va topshiriqlaridan foydalanishning samaradorligi bo‘yicha ko‘plab empirik tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Merrill (2002) tomonidan ilgari surilgan "First Principles of Instruction" nazariyasi mustaqil ta‘limni tashkil etishda kontekstli yondashuvning muhimligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, Jonassen (2011) tomonidan ishlab chiqilgan muammoli ta‘lim modeli kontekstli topshiriqlarning ta‘lim sifatiga ta‘sirini ko‘rsatib beradi.

Mustaqil ta‘lim uchun moslashtirilgan kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqishda ilg‘or xorijiy tajribalar ham o‘rganilgan. Xususan, Anderson va Krathwohl (2001) tomonidan taklif etilgan taksonomiya asosida kontekstli topshiriqlar talabalarning bilish darajalarini rivojlantirish uchun strukturaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, UNESCO (2021) tomonidan ta‘limda innovatsion yondashuvlar bo‘yicha e‘lon qilingan hisobotlar mustaqil ta‘lim uchun kontekstli topshiriqlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda ham mustaqil ta‘lim va kontekstli topshiriqlar bilan bog‘liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. N. Mahmudov (2020) tomonidan ta‘limda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati o‘rganilgan bo‘lib, unda talabalarning mustaqil ta‘limga tayyorgarlik darajasini oshirish uchun kontekstli yondashuvning zarurligi ta‘kidlangan. Shuningdek, A.Rafiyev (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kontekstli topshiriqlarning STEM yo‘nalishidagi ta‘limda qo‘llanishi bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda mustaqil ta‘lim uchun moslashtirilgan kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillarini tahlil qilish maqsad qililib, u induktiv yondashuv asosida olib borilgan hamda eksperimental, nazariy tahlil usullaridan foydalanilgan. Umumiy metodlar sifatida sifat va miqdoriy tahlil uyg‘unligi tanlangan bo‘lib, tadqiqot obyektini mustaqil ta‘lim jarayonida kontekstli topshiriqlardan foydalanayotgan talabalar tashkil etadi. Ma‘lumotlar yig‘ish usullari sifatida kuzatish, intervyu, so‘rovnoma hamda ta‘limiy tajribalar tahlili qo‘llanilgan. Ma‘lumot manbalari sifatida birlamchi (tajriba, so‘rov natijalari) va ikkilamchi (ilmiy adabiyotlar, ilg‘or tajribalar) manbalardan foydalanilgan.

Natijalarning ishonchligi va aniqliligini ta'minlash maqsadida turli eksperimental sharoitlar va nazariy tahlillar o'rtasida solishtirma tahlil amalga oshirilgan. Shu orqali mustaqil ta'limda samarali kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqish va tatbiq etishning ilmiy asoslangan tamoyillari aniqlangan.

Mustaqil ta'lim uchun moslashtirilgan kontekstli topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillarini aniqlash va baholash maqsadida turli tahlil usullari qo'llanildi [4]. Tadqiqot jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar matematik-statistik usullar, eksperimental tadqiqot natijalari va pedagogik kuzatuvlar orqali tahlil qilindi.

- **Tahlil va natijalar.** Yaratilgan kontekstli topshiriqlarning samaradorligi ekspert baholash usuli yordamida tahlil qilindi. Bunda ta'lim sohasi mutaxassisleri topshiriqlarning mantiqiy tuzilishi, ilmiy asoslanganligi va mustaqil ta'limga moslashuv darajasini baholadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, topshiriqlarning moslashuvchanligi talabalarning mavzuni chuqur tushunishiga va mustaqil fikrlashiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Talabalar tomonidan mustaqil bajarilgan topshiriqlar natijalari statistik jihatdan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida eksperimental va nazorat guruhleri o'rtasida taqqoslash o'tkazildi. Mustaqil ta'limga moslashtirilgan kontekstli topshiriqlardan foydalangan guruhda bilimlarning mustahkamlanish ko'rsatkichi 12% ga oshgani aniqlandi. Talabalar va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar va intervyu natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot qatnashchilari kontekstli topshiriqlarning amaliy ahamiyati yuqori ekanligini ta'kidladi. Ular topshiriqlarning real hayotiy holatlarga bog'langanligi sababli bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyatlari oshganini qayd etdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim uchun moslashtirilgan kontekstli topshiriqlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning ta'limga integratsiyasi talabalar bilimni mustahkamlash, mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi [3].

Mustaqil ta'lim jarayonida kontekstli topshiriqlardan samarali foydalanish tamoyillarini aniqlash va ishlab chiqish natijalari shuni ko'rsatdiki, kontekstli topshiriqlar talabalarning nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga qo'llashiga, tahliliy, muammoli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu topshiriqlar mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va talabalar faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [2].

Kontekstli topshiriqlarning ishlab chiqishda quyidagi tamoyillar asosiy o'rin tutishi aniqlandi: ilmiy-metodik asoslanganlik, mazmunning dolzarbligi, murakkablik darajasining mosligi, interfaol yondashuv va refleksiv tahlil imkoniyatining mavjudligi. Ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar mustaqil ta'lim oluvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish va ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkoniyatlarini kengaytiradi. Talabalarning fan bo'yicha chuqur tushuncha va amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish uchun kontekstli topshiriqlarni mustaqil ta'lim dasturlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiq [1]. Fanni o'qitishda interaktiv va muammoli yondashuv asosida topshiriqlarni ishlab chiqish – bu talabalarni mustaqil izlanishga va mustaqil fikrlashga undaydi. Talabalarning

mustaqil ta’lim jarayonini baholash mezonlarini takomillashtirish – kontekstli topshiriqlar orqali ularning kompetensiyalarini samarali baholash imkonini beradi [5]. Kontekstli topshiriqlar asosida elektron o‘quv resurslar va platformalarni ishlab chiqish – zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish. Kelajak tadqiqot yo‘nalishlarini rivojlantirish – kontekstli topshiriqlarning turli fanlarga moslashuvchanligi, ularning mustaqil ta’limdagi samaradorlik darajasi hamda talabalar kognitiv jarayonlariga ta’sirini chuqurroq o‘rganish zarurati mavjud.

- **Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’limga moslashtirilgan kontekstli topshiriqlar talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda ularning bilimlarini real hayotiy muammolar bilan bog‘lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan kelgusida bu yo‘nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Алимova Ф. А. Современные технологии при обучении химии. – Ташкент, 2019. – 332 с.
2. Мясникова О.М. Использование контекстных задач при оценивании метапредметных результатов / О.М. Мясникова // Пермский педагогический журнал. - 2014. - Вып. 5. - С. 110-113.
3. Тенищева В.Ф. Интегративно-контекстная модель формирования профессиональной компетенции: Дис. ... д-ра пед. наук - Москва, 2008. -399 с.
4. Чернобельская Г.М. Методика преподавания химии в средней школе. – М.: Владос, 2000. – 336 с.
5. Янущик О.В., Шерстнева А.И., Пахомова Е.Г. Контекстные задачи как средство формирования ключевых компетенций студентов технических вузов // Современные проблемы науки и образования. - 2013. -№ 6; URL: www.science-education.ru/113.